

Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.
Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 3301,0 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 20,6 ming kishiga yoki 0,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1419,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 1881,6 ming kishini (57,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-iyun

- Aholi soni **20,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **38,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,0 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **7,3 ming ta nikoh** va **0,8 ming ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (1-iyul holatiga, ming kishi)

	2019-yil	2020-yil	O`tgan yilga nisbatan o`sish yoki kamayish sur`ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3240,4	3301,0	101,9
Qarshi sh.	272,6	277,2	101,7
Shahrisabz sh.	138,0	139,4	101,0
<i>tumanlar:</i>			
G`uzor	201,0	205,2	102,1
Dehqonobod	145,1	148,2	102,1
Qamashi	267,4	272,5	101,9
Qarshi	244,2	249,5	102,2
Koson	281,0	287,0	102,1
Kitob	260,9	263,3	100,9
Mirishkor	117,8	120,1	102,0
Muborak	85,6	87,3	102,0
Nishon	150,2	153,9	102,5
Kasbi	193,5	197,5	102,1
Chiroqchi	404,0	414,8	102,7
Shahrisabz	219,3	221,8	101,1
Yakkabog`	259,8	263,3	101,3

*) dastlabki ma`lumot


Hududlar kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020-yil 1-iyul holatiga eng ko`p aholi soni Chiroqchi tumanida 414,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,5 %) va Koson tumanida 287,0 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 277,2 ming kishini (8,4 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 87,3 ming kishini (2,6 %) va Mirishkor tumanida 120,1 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o`sish sur`ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida 2,7 % ni, Nishon tumanida 2,5 % ni Qarshi tumanida 2,2 % ni, Dehqonobod, Kasbi G`uzor va Koson tumanlarida 2,1 % ni, va aksincha eng kam o`sish sur`ati Kitob tumanida 0,9 % ni, Shahrisabz shahrida 1,0 % ni, Shahrisabz tumanida 1,1 % ni va Yakkabog` tumanida 1,3 % ni tashkil etdi.


Demografik holat



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020-yil 1-iyul holatiga, % da)



Doimiy aholi sonining hududlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi

	Jami	Erkaklar	Ayollar
Qashqadaryo viloyati	3301,0	1 670,7	1 630,3
Qarshi sh.	277,2	138,7	138,5
Shahrisabz sh.	139,4	70,9	68,5
tumanlar:			
G`uzor	205,2	104,2	101,0
Dehqonobod	148,2	74,8	73,4
Qamashi	272,5	138,1	134,4
Qarshi	249,5	124,0	125,5
Koson	287,0	145,4	141,6
Kitob	263,3	134,0	129,3
Mirishkor	120,1	61,3	58,8
Muborak	87,3	44,1	43,2
Nishon	153,9	77,1	76,8
Kasbi	197,5	100,8	96,7
Chiroqchi	414,8	210,9	203,9
Shahrisabz	221,8	112,9	108,9
Yakkabog`	263,3	133,5	129,8



Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 38,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,6 promilni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 23,0 promille) ko'paygan .




O'g'il bolalar: 20,2 ming nafar
Qiz bolalar: 18,5 ming nafar

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Qarshi shahrida (18,1 promilledan 23,5 promillega), G'uzor (23,8 promilledan 25,1 promillega) va Nishon tumanlarida (23,9 promilledan 25,9 promillega) o'sish va aksincha Dehqonobod (26,6 promilledan 23,8 promillega), Koson tumanida (24,7 promilledan 23,1 promillega), Qarshi tumanlarida (21,4 promilledan 20,3 promillega) kamayish kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



**Hududlar kesimida tug`ilganlar soni birlik,
o`sinh yoki kamayish sur`ati % da (yanvar-iyun)**

	2019-yil	2020-yil	O`sinh yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	36724	38659	105,3
Qarshi sh.	2438	3220	132,1
Shahrisabz sh.	1372	1415	103,1
tumanlar:			
G`uzor	2361	2553	108,1
Dehqonobod	1917	1873	97,7
Qamashi	3546	3518	99,2
Qarshi	2575	2509	97,4
Koson	3422	3288	96,1
Kitob	2735	2762	101,0
Mirishkor	1198	1303	108,8
Muborak	1007	1011	100,4
Nishon	1770	1973	111,5
Kasbi	2134	2220	104,0
Chiroqchi	5418	5724	105,6
Shahrisabz	1850	2053	111,0
Yakkabog`	2981	3237	108,6



Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 6,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 3,7 promille).


O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Yakkabog' (3,9 promilledan 4,2 promillega), Muborak tumanlarida (3,7 promilledan 4,2 promillega) o'sish va aksincha G'uzor tumanida (4,4 promilledan 3,8 promillega), Shahrisabz shahrida (4,3 promilledan 3,6 promillega), Koson tumanida (3,6 promilledan 3,4 promillega), Kitob tumanida (3,7 promilledan 3,4 promillega), Qarshi shahrida (4,4 promilledan 3,9 promillega) va Shahrisabz tumanida (3,6 promilledan 3,4 promillega) kamayish kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: 3,3 ming kishi
Ayollar: 2,7 ming kishi

Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)




**Hududlar kesimida o`lganlar soni birlik,
o`shish yoki kamayish sur`ati % da**

	2019-yil	2020-yil	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	5984	6008	100,4
Qarshi sh.	593	540	91,1
Shahrisabz sh.	292	247	84,6
tumanlar:			
G`uzor	433	390	90,1
Dehqonobod	254	248	97,6
Qamashi	479	516	107,7
Qarshi	464	523	112,7
Koson	503	485	96,4
Kitob	478	450	94,1
Mirishkor	201	229	113,9
Muborak	155	181	116,8
Nishon	257	265	103,1
Kasbi	341	368	107,9
Chiroqchi	599	633	105,7
Shahrisabz	431	381	88,4
Yakkabog`	504	552	109,5

2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,1 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 % i o'simtalardan, 5,7 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 17,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 359 nafarni tashkil etib, ularning 48,2 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 25,9 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,0 % i tug'ma anomaliyalardan, 5,0 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 1,4 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,3 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 14,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 32,7 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 2,0 ming kishiga (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 30,7 ming kishi) o'sgan.



Tabiiy o'sish: 32,7 ming kishi

Nikoh. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,3 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish G'uzor (100,2 %) va eng yuqori kamayish Qarshi (97,5 %) Qarshi shahrida (75,2 %) ni va Dehqonobod (75,1 %), Mirishkor (75,3 %), Yakkabog' (77,6 %), Chiroqchi (78,2 %), Kasbi (78,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.


2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Muborak (145,0 %), Chiroqchi (127,7 %), Kasbi (125,8 %), Dehqonobod (120,0 %), Koson (118,8 %) va eng yuqori kamayish Qamashi (84,7 %), Yakkabog' (87,1 %), Qarshi (88,9 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati % da (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-yil	2020-yil	O`shish yoki kamayish sur`ati % da	2019-yil	2020-yil	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	8733	7281	83,4	773	815	105,4
Qarshi sh.	827	622	75,2	124	137	110,5
Shahrisabz sh.	356	337	94,7	52	52	100,0
tumanlar:						
G`uzor	554	555	100,2	39	42	107,7
Dehqonobod	390	293	75,1	30	36	120,0
Qamashi	718	576	80,2	59	50	84,7
Qarshi	635	619	97,5	72	64	88,9
Koson	841	687	81,7	48	57	118,8
Kitob	583	481	82,5	71	75	105,6
Mirishkor	348	262	75,3	24	23	95,8
Muborak	250	230	92,0	20	29	145,0
Nishon	438	356	81,3	37	41	110,8
Kasbi	507	399	78,7	31	39	125,8
Chiroqchi	1039	813	78,2	47	60	127,7
Shahrisabz	523	489	93,5	57	56	98,2
Yakkabog`	724	562	77,6	62	54	87,1



Migratsiya. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 16,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 12,1 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 3,4 ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Kitob tumanida (minus 2,8 ming kishi), Yakkabog' tumanida (minus 2,6 ming kishi), Shahrisabz tumanida (minus 1,8 ming kishi), Qamashi tumanida (minus 1,2 ming kishi) qayd etildi.

Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-iyun)

	2019-yil	2020-yil
Ko'chib kelganlar	5,4	4,5
Ko'chib ketganlar	8,8	16,6
Migratsiya saldosini	-3,4	-12,1

**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-iyun)**

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2019-yil	2020-yil	2019-yil	2020-yil	2019-yil	2020-yil
Qashqadaryo viloyati:	5424	4504	8812	16561	-3388	-12057
Qarshi sh.	1264	979	1217	1356	47	-377
Shahrisabz sh.	205	145	405	1001	-200	-856
tumanlar:						
G`uzor	231	140	381	541	-150	-401
Dehqonobod	163	103	449	480	-286	-377
Qamashi	238	152	728	1382	-490	-1230
Qarshi	796	878	600	754	196	124
Koson	245	224	477	532	-232	-308
Kitob	238	217	723	3057	-485	-2840
Mirishkor	180	99	238	199	-58	-100
Muborak	204	134	268	238	-64	-104
Nishon	528	427	464	547	64	-120
Kasbi	295	162	376	435	-81	-273
Chiroqchi	126	109	766	818	-640	-709
Shahrisabz	356	419	853	2262	-497	-1843
Yakkabog`	355	316	867	2959	-512	-2643

Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-iyun)

